

**O'ZBEK TILI, ADABIYOTI VA FOLKLORI INSTITUTI
HUZURIDAGI ILMiy DARAJALAR BERUVCHI
DSc.02/30.12.2019.Fil.46.02 RAQAMLI ILMiy KENGASH**

**ALISHER NAVOIY NOMIDAGI TOSHKENT DAVLAT O'ZBEK TILI
VA ADABIYOTI UNIVERSITETI**

EGAMQULOV KAMOLIDDIN SAMAD O'G'LI

**CHIROQCHI DOSTONCHILIK MAKTABINING
JANUBIY O'ZBEKISTON BAXSHICHILIGIDAGI O'RNI
VA SHOMUROD BAXSHI LJODI**

10.00.08 – Folklorshunoslik

**Filologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (Phd) dissertatsiyasi
AVTOREFERATI**

Filologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi avtoreferati
mundarijasi

Оглавление автореферата диссертации доктора философии (PhD)
по филологическим наукам

Contents of Dissertation abstract of the Doctor of Philosophy (PhD)
on Philological sciences

Egamkulov Kamoliddin Samad o'g'li
Chiroqchi dostonchilik maktabining Janubiy O'zbekiston baxshichiligidagi o'rni
va Shomurod baxshi ijodi 3

Egamkulov Kamoliddin Samad oghli
The role of the Chiroqchi school of epic poetry in the bakhshi tradition of
Southern Uzbekistan and the works of Shomurod bakhshi 25

Egamkulov Kamoliddin Samad utli
Роль Чиракчинской школы эпоса в искусстве бахши Южного Узбекистана
и творчество Шомурода бахши 47

E'lon qilingan ishlar ro'yxati
List of published works
Список опубликованных работ 51

O'ZBEK TILI, ADABIYOTI VA FOLKLORI INSTITUTI
HUZURIDAGI ILMiy DARAJALAR BERUVCHI
DSc.02/30.12.2019.Fil.46.02 RAQAMLI ILMiy KENGASH

ALISHER NAVOIY NOMIDAGI TOSHKENT DAVLAT O'ZBEK TILI
VA ADABIYOTI UNIVERSITETI

EGAMQULOV KAMOLIDDIN SAMAD O'G'LI

CHIROQCHI DOSTONCHILIK MAKTABINING
JANUBIY O'ZBEKISTON BAXSHICHILIGIDAGI O'RNI
VA SHOMUROD BAXSHI IJODI

10.00.08 – Folklorshunoslik

Filologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi
AVTOREFERATI

Filologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi mavzusi Oliy attestatsiya komissiyasida B2023.3.PhD/Fil935 raqam bilan ro'yxatga olingan.

Dissertatsiya Alisher Navoiy nomidagi Toshkent davlat o'zbek tili va adabiyoti universitetida bajarilgan.

Dissertatsiya avtoreferati uch tilda (o'zbek, ingliz, rus (rezюме)) Ilmiy kengash veb-sahifasida (www.tai.uz) hamda "ZiyoNet" Axborot-tilim portalida (www.ziyo.net.uz) joylashtirilgan.

Ilmiy rahbar: Tilavov Abdumurod Xolmurotovich
filologiya fanlari nomzodi, dotsent

Rasmiy opponenlar: Achilov Nasim Kamolovich
filologiya fanlari doktori, professor

Yormatov Isamiddin Turgunovich
filologiya fanlari doktori, professor

Yetakchi tashkilot: Nizomiy nomidagi O'zbekiston milliy
pedagogika universiteti

Dissertatsiya himoyasi O'zbekiston Respublikasi Fanlar akademiyasi O'zbek tili, adabiyoti va folklori instituti huzuridagi ilmiy darajalar beruvchi DSc.02/30.12.2019.Fil.46.02 raqamli Ilmiy kengashning 2025-yil "6" oktabr soat 14:30 dagi majlisida bo'lib o'tadi. (Manzil: 100060, Toshkent, Shahrizabz tor ko'chasi, 5-uy. Tel.: (99871) 233-36-50; faks: (99871) 233-71-44; e-mail: uztafi@academy.uz).

Dissertatsiya bilan O'zbekiston Respublikasi Fanlar akademiyasining asosiy kutubxonasida tanishish mumkin. Manzil: 100100, Toshkent shahri, Ziyolilar ko'chasi, 13. Tel.: (99871) 262-74-58.

Dissertatsiya avtoreferati 2025-yil "23" sentabr kuni tarqatildi. (2025-yil "23" sentabr dagi 3 - raqamli reyestr bayonnomasi).


J. Eshonqulov
Ilmiy darajalar beruvchi Ilmiy kengash raisi, filol.f.d., professor
M. Jo'rayeva
Ilmiy darajalar beruvchi Ilmiy kengash ilmiy kotibi, filol.f.b.f.d.
Sh. Turdimov
Ilmiy darajalar beruvchi Ilmiy kengash qoshidagi ilmiy seminar raisi filol.f.d., professor

KIRISH (falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi annotatsiyasi)

Mavzuning dolzarbligi. Jahon folklorshunosligida epik an'analar, ularning kelib chiqishi, taraqqiy etishi hamda epik ijrochilik va ijodkorlarning milliy-badiiy tafakkur taraqqiyotidagi o'rni alohida diqqat qaratilmoqda. Umuman, dunyo xalqlari orasida har bir millat o'zining epik ijodini, urf-odatlarini, milliy-madaniy meroslarini asrab qolish, avlodlan-avlodga yetkazish uchun tinmay izlanib kelmoqda. Shu ma'noda mamlakatimizda ham xalqimizning yuksak badiiy ijodiyoti asosida yaratilgan nomoddiy madaniy meros durdonalarini asrab-ayaylash, xalq og'zaki ijodining qadimiy an'analarini tiklash va milliy qadriyatlarini izchil rivojlantirish, ijodiy uyushmalar hamkorligida baxshi va dostonchilar ijodining eng yaxshi namunalari targ'ib qilish borasida keng ko'lami ishlar amalga oshirilmoqda.

So'nggi o'n yillikda o'zbek xalqining turmush tarzi, boy tarixi va madaniyatini aks ettirgan epik asarlarining so'z san'ati taraqqiyoti va yosh avlod tarbiyasidagi o'rni o'rganishga o'tibor oshirildi. Zero, yurtboshimiz Sh.Mirziyoyev ta'kidlaganidek: "Insoniyat yaratgan bebaho madaniyat durdonalari, eng avvalo, har qaysi millatning folklor san'atida mujassam topgani hammamizga yaxshi ma'lum... Folklor san'ati, ta'bir joiz bo'lsa, bu - insoniyatning bolalik qo'shig'idir". Ayni paytda baxshichilik va dostonchilik san'atining tarixi, baxshilar ijodini mukammal o'rganish, bu borada fundamental tadqiqotlar olib borish, xalq og'zaki ijodi yodgorliklarini to'plash, nashr etish yuzasidan yana ko'pgina chora-tadbirlarni amalga oshirishga ehtiyoj sezilmoqda.

Baxshichilik va dostonchilik san'atini rivojlantirish, baxshi-shoirilar ijodining o'zbek madaniyati va san'atidagi o'rni hamda ahamiyatini yanada oshirish, shuningdek, o'quv-uslubiy adabiyotlar yaratish, baxshichilik va dostonchilik san'atini ommaviy axborot vositalari, internet tarmog'i orqali mamlakatimizda hamda chet ellarda targ'ib etish, ustoz baxshilar, soha olimlari va mutaxassislari, iqtidorli yosh baxshilar faoliyatini moddiy va ma'naviy jihatdan qo'llab-quvvatlash, yosh avlodni mardlik, halollik, milliy va umuminsoniy qadriyatlar, ona yurtga va ajdodlar merosiga yuksak sadoqat ruhida tarbiyalash maqsadida bir qancha qarorlar qabul qilingan.

Binobarin, O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017-yil 7-fevraldagi PF-4947-son "O'zbekiston Respublikasini yanada rivojlantirish bo'yicha Harakatlar strategiyasi to'g'risida"gi, 2019-yil 21-oktyabrda PF-5850-son "O'zbek tilining davlat tili sifatidagi nufuzi va mavqei tubdan oshirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi Farmonlari, 2017-yil 17-fevraldagi PQ-2789-son "Fanlar akademiyasi faoliyati, ilmiy tadqiqot ishlarini tashkil etish, boshqarish va moliyalashtirishni yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi, 2018-yil 1-noyabrda PQ-3990-son "Xalqaro baxshichilik san'ati festivalini o'tkazish to'g'risida"gi, 2019-yil 14-maydagi PQ-4320-son "Baxshichilik san'atini yanada rivojlantirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi, 2019-yil 23-sentyabrda PQ-798-son

1. Ўзбекистон Республикаси Президентини Шавкат Мирзиёевнинг Халққаро бахшичилик санъати фестивали очилишига бағишланган тантанали маросимдаги нутқи // Халқ сўзи. – Тошкент, 2019 йил, 7 апрель. – № 68.

“Respublika baxshichilik san’ati markazi va uning huzuridagi baxshichilik san’atini rivojlantirish jamg’armasi faoliyatini tashkil etish to’g’risida”gi qarorlari, 2019-yil 6-apreldagi “Xalqaro baxshichilik san’ati” festivalining ochilishi tantanalaridagi nutqi, O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2010-yil 7-oktabrdagi 220-son “2010–2020-yillarda nomoddiy madaniy meros obyektlarini muhofaza qilish, asrash, targ’ib qilish va ulardan foydalanish Davlat dasturini tasdiqlash to’g’risida”gi, 2018-yil 26-apreldagi 304-son “Baxshichilik va dostonchilikni yanada rivojlantirish hamda takomillashtirish chora-tadbirlari to’g’risida”gi qarorlari hamda mazkur faoliyatga tegishli me’yoriy-huquqiy hujjatlarda belgilangan ustuvor maqsad va vazifalarni amalga oshirishda ushbu tadqiqot muayyan darajada xizmat qiladi.

Tadqiqot ishining respublika fan va texnologiyalari rivojlanishining ustuvor yo’nalishlariga mosligi. Dissertatsiya, respublika ilm-fan va texnologiyalarni rivojlantirishning I. “Axborotlashgan jamiyat va demokratik davlatni ijtimoiy, huquqiy, iqtisodiy, madaniy, ma’naviy-ma’rifiy rivojlantirish innovatsion iqtisodiyotni rivojlantirish” ustuvor yo’nalishiga muvofiq bajarilgan.

Muammoning o’rganilganlik darajasi. Xalq baxshichiligi va dostonchiligi folklorshunosligimizning dolzarb va eng ommabop mavzusi bo’lganligi sababli, o’zbek folklorshunosligida baxshichilik va dostonchilikning bir qator o’ziga xos tomonlarini ilmiy-nazariy jihatdan o’rganuvchi fundamental tadqiqotlar yaratilgan. O’zbek dostonchiligi, dostonchilik maktablari va ularning ijrochilari, o’ziga xos farqli va o’xshash jihatlari, an’analari borasida V.M.Jimunskiy, H.T.Zarifov, A.K.Borovkov, L.P.Potapov, M.Saidov, T.Mirzayev, A.Qahhorov, M.Mirzayeva, M.Saidov, M.Murodov, A.Ergashev, Sh.Turdimov, J.Eshonqulov, N.Ochilov kabi olimlarning ilmiy o’rganishlari², xizmatlari beqiyosdir. Aynan Volha dostonchiligi – Qashqadaryo-Surxondaryo baxshichiligi, dostonchilik maktablari, ularning

vakillari, ijro an’analari borasida ilmiy tadqiqotlar, nomzodlik va doktortlik ishlari ham mavjud³. Volha dostonchiligi – Sherobod, Kofirun, Beshqo‘ton, Qamay, Shahrizabz, Chiroqchi dostonchilik maktablari umumiy o’rganilib, tadqiqotlar olib borilgan bo’lsa-da, Chiroqchi dostonchilik maktabi, uning ijrochilari va ijro an’analari, o’ziga xosligi izchil, alohida o’rganilmaganligi Chiroqchi dostonchilik maktabi va Shomurod baxshining hayot-ijodini izchil o’rganish folklorshunoslikda nechog’lik ahamiyatli ekanligini va nazardan chetda qolayotganligini ko’rsatadi.

Tadqiqotning dissertatsiya bajarilgan ilmiy-tadqiqot muassasasi ilmiy-tadqiqot ishlari rejalar bilan bog’liqligi. Alisher Navoiy nomidagi Toshkent davlat o’zbek tili va adabiyoti universitetining “O’zbek folklori va dialektologiyasi tadqiqotlari” mavzusidagi ilmiy ishlari doirasida bajarilgan.

Tadqiqotning maqsadi. Chiroqchi dostonchilik maktabining Janubiy O‘zbekiston baxshichiligidagi o‘rmi, o‘ziga xos xususiyatlari, ijro an’analarini, shu maktabning yetuk vakili Shomurod baxshi hayot yo’li va ijodi, ijro uslubi, badiiy mahorati, boshqa dostonchilik maktabi vakillari va ijro usullaridan farqli va o’xshash jihatlarni ochib berishdan iborat.

Tadqiqotning vazifalari. Ushbu maqsadni amalga oshirish uchun quyidagi vazifalarni hal etish ko’zda tutiladi:

– Chiroqchi dostonchilik maktabining shakllanishi, ijodiy an’analarining davom etishi va baxshilarning ijro uslubini aniqlash;

– Chiroqchi dostonchilik maktabi vakillari va ularning ijodiy repertuaridagi o’ziga xoslikni tadqiq qilish va Chiroqchi dostonchilik maktabi baxshilari orasida Shomurod baxshi ijodining o’rmini belgilash;

– Shomurod baxshi ijodiy merosiga xos an’ana va novatorlikni aniqlash va ilmiy xulosalarga kelish;

– Baxshi repertuaridagi “Ovsar dev bilan Gupsar dev” dostonining genezisini aniqlash va dostonga xos epik an’anani ko’rsatib berish;

– Shomurod baxshining “Nurali” dostoni variantining “Go’ro’gli” turkumi dostonlaridagi o’rmi va xarakterli xususiyatlarini belgilash hamda dostonlarda qo’fiya va badiiy takrorning o’ziga xosligini o’rganish;

– Shomurod baxshining obraz yaratishdagi mahoratini baholash va ilmiy asoslash.

Tadqiqotning obyekt. Shomurod baxshidan yozib olingan termalar va u kuylagan “Ovsar dev bilan Gupsar dev”, “Nurali” dostonlarining audio variantlari, “Alpomish” va boshqa dostonlarning parchalari obyekt sifatida asos qilib olindi.

Tadqiqot predmeti. Chiroqchi dostonchilik maktabi vakillari, ular kuylagan terma va dostonlarni aniqlash, baxshichilik va dostonchilikning asosiy obyekt

³ Мамашукуров К. Идейно-художественные особенности цикла дастанов “Нуралӣ”, дисс. канд. филол. наук. – Тошкент, 1985. – 152 с.; Кахҳоров А. “Келиной” туркуми дostonларининг ўзига хос хусусиятлари: Филол. Фан. номз. Дисс... автореф. – Тошкент, 1972. – 24 с.; Муродов М. “Турғун” туркума дostonларининг жанр ва говий-бдий хусусиятлари: Филол. фанлари докт. дисс... автореф. – Тошкент, 1979. – 48 б.; Эргашев А. Шеробод дostonчилик мактаби: Филол. Фан. номз. дисс. автореф. – Тошкент, 1989. – 24 б.; Очипов Н. XX асрнинг 60-80-йилларида Жанубий Ўзбекистон воҳадра халқ эпик аңваларининг сақланиши ҳолати (Қодир бахши Раҳимов ижоди ва репертуари асосида): филол. фан. номз... дисс. – Тошкент, 2004. – 148 б.; Эргашев А. Қашқадарь-Сурхондарь дostonчиликнинг умумЎзбек эпоси таракқиётидаги ўрни: Филол. фан. докт... дисс. – Тошкент, 2021. – 312 б.

² Жирмулский В.М. Зарифов Х. Т. Узбекский народный героический эпос. – М.: ОГИЗ, 1947. – 520 с.; Жирмулский В.М. Тюркский героический эпос. – М.: Наука, 1974. – 727 с.; Борваков А.К. Героический эпос об Алпамыше // Об эпосе Алпамыш. – Ташкент, 1959. – С. 61-86; Поталов Л. П. Узбекские народные поэмы и приметы / Узбек фольклоршунослиги масалалари. III том. – Тошкент: Фан, 2010. – Б. 230-245; Саидов М. Узбек дostonчиликда бдий маҳорат масаласи. – Тошкент: 1969. – Б. 48-51; Зарифов Х. Фозил шоир – машхур дostonчи / Фозил шоир. Узбек халқ ижоди бўйича талқинотлар. 3-китоб. – Тошкент: Фан, 1974. – Б. 4-15; Зарифов Х. Улкан халқ санъаткорлари // Эргаш шoir va uning дostonчиликда туғган ўрни. – Тошкент: Фан, 1971. – Б. 79-88; Зарифов Х. Узбек фольклоршунослиги тарихидан // Узбек фольклори масалалари. – Тошкент: Фан, 1970. – Б. 264-267; Мирзayev Т. Халқ бахшларининг эпик репертуари. – Тошкент: Фан, 1997. – 152 б.; Мирзayev Т. Холди Зариф суьбаглари. – Тошкент: Фан, 2013. – 382 б.; Мирзayev Т. “Алломшид” дostonининг ўзбек вариантлари. – Тошкент: Фан, 1968. – 152 б.; Мирзayev Т. Достон. Узбек фольклорининг эпик жанрлари. – Тошкент: Фан, 1981. – Б. 43-46; Мирзayev Т. “Алломшид” келиши // Узбек фольклорининг эпик жанрлари. – Тошкент: Фан, 1981. – Б. 43-46; Мирзayev Т. “Алломшид” дostonи, унинг версия ва вариантлари // “Алломшид” – узбек халқ кахрамонлик эпоси. – Тошкент: Фан, 1999. – Б. 3-21; Мирзayeva M. Халқ дostonларида туркумлик масаласи // Узбек халқ ижоди. – Тошкент: 1967. – 223 б.; Кахҳоров А. Янги дostonлар. – Тошкент: Фан, 1985. – 76 б.; Муродов М. Эргашев А. Алломшинома. 1-китоб. – Тошкент: Мехнат, 1999. – 485 б.; Муродов М. Эргашев А. Алломшинома. 2-китоб. – Тошкент: Мехнат, 2000. – 564 б.; Эргашев А. Омилавий бахшлар сулоласи. – Термиз: Сурухон, 2019. – 220 б.; Эргашев А. Қашқадарь-Сурхондарь дostonчилиги. – Тошкент: Фан, 2008. – 200 б.; Эргашев А. Қодир бахши термалари. – Қарши: Насарф, 2013. – 78 б.; Турдимов Ш. “Турғун” дostonларининг генезиси ва тарихий боьқичлари. – Тошкент: Фан, 2011. – 240 б.; Турдимов Ш. Этнос ва эпос. – Тошкент: Ўзбекистон, 2012. – 96 б.; Турдимов Ш. Халқ кўшиқларида рамз. – Тошкент: Фан, 2020. – 192 б.; Турдимов Ш. Узбек мифологияси ва фольклори. – Тошкент: Илм ва фан, 2023. – 324 б.; Эшонкулов Ж. Фольклор образ ва талқин. – Қарши: Насарф, 1999. – 168 б.; Эшонкулов Ж. Узбек фольклориди туш ва унинг бдий талқини. – Тошкент: Фан, 2011. – 153 б.; Эшонкулов Ж. Миф ва бдий тафаккур. – Тошкент: Фан, 2019. – 246 б.

hisoblangan shu maktabga xos terma va dostonlarning uyg'un va individual jihatlari, badiiyati, xalqona ifodasi, milliy koloritini ifodalovchi ramziy-poetik obrazlar tizimi tashkil etadi.

Tadqiqot usullari. Tadqiqot mavzusini yoritishda qiyosiy-tipologik, struktural, etnofolkloristik, matnii tahlil usullaridan foydalanildi.

Tadqiqotning ilmiy yangiligi quyidagilardan iborat:

Chiroqchi dostonchilik maktabining Janubiy O'zbekiston dostonchiligidagi o'rni belgilash, mazkur maktabning ijodiy an'analari, baxshilarning individual mahorati, boshqa dostonchilik maktablari bilan o'xshash va farqli jihatlari aniq misollar vositasida asoslangan;

Shomurod baxshi ijodiy merosining o'ziga xosligi, epik ijro va badiiy mahoratiga oid xarakterli xususiyatlar ochib berilgan;

Janubiy O'zbekiston dostonchiligida "Go'ro'g'li" turkumiga oid "Ovsar dev bilan Gupsar dev" dostoni mavjidliligi aniqlanib, dostonning badiiy jihati, an'anaviyligi, obrazlar tizimi tahlillar asosida yoritilgan;

Chiroqchi dostonchilik maktabining yetuk vakili Shomurod baxshining dostonlardagi qo'fiya va badiiy takrorlar, baxshining obraz yaratishdagi mahorati matnii tahlillar natijasida oydinlashtirilgan.

Tadqiqotning amaliy natijalari quyidagilardan iborat:

Chiroqchi dostonchilik maktabining o'ziga xos xususiyatlari Janubiy Vohadagi boshqa dostonchilik maktablari xususiyatlaridan farqli va o'xshash jihatlari, ijro an'analari tavsif, qiyoslash usullari orqali aniqlangan;

Chiroqchi dostonchilik maktabining vakillari, ularning ijro xususiyatlari, ustoz-shogirdlik an'analari, repertuari statistik, komponent tahlillar asosida aniqlangan;

Chiroqchi dostonchilik maktabining yetuk vakili Shomurod baxshining hayoti va ijodi, ustoz va shogirdlik an'analari, badiiy mahorati, kuyilgan doston va termalarning o'ziga xosligi, badiiyati, tarbiyaviyligi, ibratliligi, umumiy va xususiyiligi qiyosiy-tarixiy, tasniflash, tavsiflash asosida dalillangan.

Tadqiqot natijalarining ishonchiligi. Dissertatsiyada foydalanilgan nazariy va amaliy ma'lumotlar, ilmiy manbalar bo'yicha bildirilgan fikrlar va chiqarilgan xulosalar tavsiflash, qiyosiy-tipologik tahlil kabi usullar bilan asoslanganligi, doston va termalar matnidagi an'anaviyligni belgilashda o'zbek folklorining turli davrlariga oid ishonchli manbalarga tayanilgani bilan belgilanadi.

Tadqiqot natijalarining ilmiy va amaliy ahamiyati. Tadqiqot natijalarining ilmiy ahamiyati, chiqarilgan nazariy xulosalar o'zbek folklorshunosligiga bog'liqligi, Janubiy Voha dostonchilik maktablarining o'ziga xos xususiyatlaridagi chalkashliklarni bartaraf etish, kanchiliklarni to'ldirish, nomoddiy-madaniy meros hisoblangan baxshilikni saqlab qolish uchun qilinayotgan sa'y-harakatlar, zamonaviy Respublika baxshilik maktablarga qimmatli manba ekanligi bilan belgilanadi.

Tadqiqot natijalarining amaliy ahamiyati oliy o'quv yurtlari, akademik litsey, zamonaviy baxshilik maktablari, umumta'lim maktablari uchun o'quv qo'llanmalar, o'quv-uslubiy majmualar tayyorlashda, nafaqat folklor, adabiyot,

tarix, tarbiya kabi fanlarda darsliklar tuzishda manba sifatida qo'llanishi mumkinligi bilan belgilanadi.

Tadqiqot natijalarining joriy qilinishi. Alisher Navoiy nomidagi Toshkent davlat o'zbek tili va adabiyoti universitetida 2021–2022-yillarga mo'ljallangan IL-402104474. "Bolalaradabiyoti.uz multimediali elektron platforma va uning mobil ilovasini yaratish" mavzusidagi innovatsion loyihami bajarishda Toshkent davlat o'zbek tili va adabiyoti universiteti Folklorshunoslik va dialektologiya kafedrasida tayanch doktoranti Egamqulov Kamoliddin Samad o'g'lining 10.00.08 – Folklorshunoslik ixtisosligi bo'yicha "Chiroqchi dostonchilik maktabining Janubiy O'zbekiston baxshichiligidagi o'rni va Shomurod baxshi ijodi" mavzusidagi filologiya fanlari nomzodi (PhD) ilmiy darajasini olish uchun tayyorlagan dissertatsiyasi ilmiy natijalari va xulosalaridan (asosan, e'lon qilingan maqola va tezislardan) zarur o'rinlarda foydalanilgan. Natijada, loyihaming ilmiy-nazariy konsepsiyasi yangi fikr-mulohazalar bilan boyishiga erishilgan.

O'zbekiston Respublikasi Oliy va o'rta maxsus ta'lim vazirligi Toshkent davlat o'zbek tili va adabiyoti universitetida 2023–2024-yillarda bajariladigan "Alisher Navoiy mualliflik korpusini yaratish" mavzusidagi amaliy loyihasining ijrosini ta'minlashda Toshkent davlat o'zbek tili va adabiyoti universiteti Folklorshunoslik va dialektologiya kafedrasida tayanch doktoranti Egamqulov Kamoliddin Samad o'g'lining 10.00.08 – Folklorshunoslik ixtisosligi bo'yicha "Chiroqchi dostonchilik maktabining Janubiy O'zbekiston baxshichiligidagi o'rni va Shomurod baxshi ijodi" mavzusidagi filologiya fanlari nomzodi (PhD) ilmiy darajasini olish uchun tayyorlagan dissertatsiyasi ilmiy natijalari va xulosalaridan (asosan, e'lon qilingan maqola va tezislardan) zarur o'rinlarda foydalanilgan. Natijada Alisher Navoiyning nasriy asarlariga, jumladan, dostonlariga xalq dostonlarining ta'siri mifologik obrazlar, sebrli tilsimlarning ishtirok etishida ko'rinsa, o'rni kelganda xalq maqollaridan foydalanishi xalq og'zaki ijodining ta'sirini ko'rsatganligi, Alisher Navoiy asarlarida kotib, xattot ma'nosida qo'llangan "baxshi" atamasi bugungi kunda, asosan, doston va termalar kuylovchi ijodkor ma'nosida qo'llanilishini ilmiy jihatdan asoslab berishga erishilgan;

O'zbekiston milliy teleradiokompaniyasi "O'zbekiston tarixi" telekanali ijodkorlari Egamqulov Kamoliddin Samad o'g'lining "Chiroqchi dostonchilik maktabining Janubiy O'zbekiston baxshichiligidagi o'rni va Shomurod baxshi ijodi" mavzusida filologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasidan ayrim ko'rsatuvlar ssenariysini shakllantirishda foydalanilgan (O'zbekiston milliy teleradiokompaniyasi "O'zbekiston teleradiokanali" davlat muassasasining 2024-yil 25-maydagi 02-31-663-son ma'lumotnomasi). Natijada "O'zbekiston tarixi" telekanalida efriga uzatilgan "Hamma uchun" ko'rsatuvi ssenariylarini tayyorlashda K.Egamqulov tadqiqotlarida ilgari surilgan baxshilik va dostonchilik, ularning o'zbek folkloridagi o'rni, dostonlarning janr xususiyatlari, o'rganilish darajasi, bugungi dunyoqarash bilan bog'liq jihatlari va ularning taraqqiyot bosqichlariga oid ilmiy xulosalardan ma'lumot sifatida foydalanishga erishilgan.

Tadqiqot natijalarining aprobatitsiyasi. Tadqiqot natijalari 7 ta ilmiy-amaliy anjumanda, shu jumladan, 3 ta respublika, 4 ta xalqaro konferentsiyalarda qilingan ma'ruzalarda, 2 ta televideniya chiqish orqali aprobatitsiyadan o'tkazilgan.

Tadqiqot natijalarining e'lon qilinishi. Dissertatsiya mavzusi bo'yicha jami 13 ta ilmiy ish, shulardan, O'zbekiston Respublikasi Oliy attestatsiya komissiyasi tomonidan doktorlik dissertatsiyalarining asosiy ilmiy natijalarini chop etish tavsiya etilgan ilmiy nashrlarda 6 ta ilmiy maqola, ulardan 3 tasi xorijiy jurnallarda chop etilgan.

Dissertatsiyaning tuzilishi va hajmi. Dissertatsiya kiritish, uch bob, olti fasl, xulosa, foydalanilgan adabiyotlar ro'yxatidan hamda ilovalardan iborat bo'lib, umumiy hajmi 142 sahifadan iborat.

DISSERTATSIYANING ASOSIY MAZMUNI

Kiritish qismida mavzuning dolzarbligi, zarurati, o'rganilganlik darajasi, tadqiqotning maqsadi, vazifalari, obyekti, predmeti, usullari, respublika fan va texnologiyalarini rivojlantirish ustuvor yo'nalishlariga mosligi, ilmiy yangiligi, amaliy natijalari, olingan natijalarining ilmiy, amaliy ahamiyati, amaliyotiga joriy etilishi, nashr qilingan ishlar, dissertatsiyaning tuzilishiga doir ma'lumotlar keltirilgan.

Dissertatsiyaning **"Janubiy O'zbekiston dostonchiligida Chiroqchi maktabining o'rni"** deb nomlangan birinchi bobida dostonchilik maktablarining shakllanishi, ularning ustoz-shogirdlik tizimi, ijro an'anasi, qolaversa, kuylangan dostonlarning o'ziga xosligi, variantlari, ijro yo'nalishida va taraqqiyot bosqichida katta salmoqqa ega bo'lgan Janubiy O'zbekiston dostonchilik maktabining tarixi, bugungi kun baxshchilik san'atida tutgan o'rni tadqiq etilgan. Bobning ilk fasli **"Chiroqchi dostonchilik maktabining repertuari va ijodiy an'analari"** deb nomlangan.

Dostonchilik san'atining paydo bo'lishi va tadrifiy taraqqiyoti bevosita baxshilar ijrochiligi va faoliyati bilan chambarchas bog'langan. Zero, folklorshunos olim, akademik T.Mirzayev ta'kidlaganidek: "Jonli og'zaki epik an'anani yaratuvchilar, davom ettiruvchilar, muayyan ijtimoiy-iqtisodiy sharoitda uni yanada rivojlantiruvchilar va nihoyat bizning davrimizda yangi an'anaga zamonaviy dostonchilikka asos soluvchilar xalq ommasi siyosiy-madaniy hayotida katta o'rinni tutgan baxshilar hisoblanadilar". Darhaqiqat, xalq baxshilari xalqning epik bilimdonlari sifatida xalq hayotidan termalar va dostonlar yaratadi.

O'zbek folklorshunosligining asoschisi H.Zarifov g'oyaviy yo'nalishi bir, ammo poetik uslublari, ijro usullari jihatidan bir-birlaridan farq qiladigan xalq baxshilarining o'zlariga xos poetik yo'llar bilan bir-birlaridan ajralishlarini aniqlagan hamda ularning yo'nalishiga qarab dostonchilik maktablariga bo'lgan.

Janubiy O'zbekiston vohalari xalq og'zaki ijodini o'rganish H.Zarifov boshchiligida 1929-yildan boshlandi⁶. Shundan so'ng mazkur hududlarda bir necha bor ekspeditsiya uyushtirildi (1945-yilda M.Afzalov boshchiligida, 1955-1960-yillarda T.Mirzayev, M.Murodovlar boshchiligida) va ko'plab og'zaki ijod namunalari, bir qancha dostonlar yozib olindi. Izlanish va o'rganishlar natijasida 200dan ortiq baxshilar aniqlandi. Folklorshunoslikda yangi Qashqadaryo-Surxondaryo dostonchilik maktablari kiritildi.

Qashqadaryo-Surxondaryo dostonchiligi, baxshilarining mahorati sohasida G.Yunusov, H.Zarifov, V.Jirmunskiy, M.Afzalov, T.Mirzayev, M.Murodov, M.Saidov, B.Sarimsoqov, M.Jo'rayev, Sh.Turdimov, J.Eshonqulov, I.Yormatov, U.Jumanazarov, S.Yo'ldoshova, S.Mirzayeva kabi olimlarning tadqiqot ishlari yuzaga keldi⁷.

Tadqiqotlarda Qashqadaryo-Surxondaryodagi Sherobod, Shahrisabz, Qamay dostonchilik maktablari e'tirof etiladi. Dastlab e'tirof etilgan shu uch poetik maktablarining har biriga xos xususiyatlarni, ularning umumio'zbek dostonchiligidagi o'rini ilk bor umumiy tarzda professor T.Mirzayev ilmiy asoslagan. Olimning ta'kidlashicha: "O'zbekistonning janubida yashovchi ko'pgina baxshilar ijodi Sherobod dostonchilik maktabi bilan bog'liqdir. Bu maktabga birlashgan baxshilar repertuariga nazar tashlar ekanimiz, dostonchilikning nisbatan quyi bosqich unsurlariga, badiiy tafakkurning uncha rivojlanmagan formalarga duch kelamiz"⁸.

Qashqadaryo-Surxondaryo dostonchilik maktablarining o'z g'oyaviy yo'nalishi va repertuari mavjud bo'lib, ijro usullari, poetik ifodadagi o'ziga xos jihatlari bilan bir-biridan farq qiladi.

Birinchidan, har bir dostonchilik maktabi vakillari o'ziga xos nomlanishga ega bo'lgan. Chiroqchi baxshilari nomiga asosan "shoir" sifatlashi qo'shib nomlangan. Sherobod baxshilari asosan "yuzboshi" deb atalgan, Qamay baxshilar ismiga "mulla" sifatlashini qo'shib nomlash yetakchilik qilgan.

Bu an'anaviy tarzda boshqa dostonchilik maktablarida ham mavjud. Doston kuylovchi baxshilar "jirrov", "jirchi", "soq", "oqin", "sannovchi", "xalfa" kabi sifatlovchi nomlar qo'shib aytiladi.

⁶ Mirzayev T. Xoldi Zarifov suxbatlarini. - Toshkent, Shams-ASA, 2013. - B. 266-271.
⁷ Jirmunskiy V. M., Zarifov X. T. Uzbekskiy narodniy geroicheskii эпос. - M.: OTIZ, 1947. - 520 с.; Жирмуцкий В. М. Торжеский героический эпос. - M.: Наука, 1974. - 726 с.; Афзалов М. Узбек халк бaxshilari // Шарк юлдузи, 1946. - №10-11.; Mirzayev T. Alpomish dostonning Uzbek variantlari. - Toshkent, 1968. - 152 б.; Халк бaxshilarining эпик репертуари. - Toshkent, 1979. - 152 б.; Муродов М. Жапорове и илейно (художественные особенности дастанов Горюлы. Автореф. дисс. докт. филол. наук. - Ташкент: 1976. - 25 с.; Саримсоков Б. Узбек адабиятида сажа. - Toshkent, 1978. - 152 б.; Саидов М. Узбек дostonchiligida бadiiy mahorat. - Toshkent, 1969. - 232 б.; М. Жураев, Ш. Помурзаров. Узбек мифологияси ва араб фольклори. - Toshkent, 2001. - 136 б.; Турдимов Ш. Гурўли дostonlari tengezi va tadrifiy bosqichlari. - Toshkent, 2001. - 240 б.; Эшонқуллов Ж. Фольклор образ ва ташкини. - Toshkent, 1994. - 186 б.; Жуманазаров У. 168 б.; Ерматов И. Узбек халк кахрамонлик эпоси бадиияти. - Toshkent, 1991. - 144 б.; Юлдашова С. Поэтика узбекского Узбек фольклори ва тарихий воқеалик. - Toshkent, 1991. - 144 б.; Юлдашова С. Поэтика узбекского народного героического эпоса "Алпомиш". Автореф. дисс. докт. филол. наук. 1984. - 28 с.; Mirzayev T. Узбек халк романлик дostonlar поэтикаси. Филол. фан. дисс. автореф. - Toshkent, 2004. - 200 б.; Эргашев А. Шеробод дostonchilik maktabi. Филол. фанлари номз. дисс. автореф. - Toshkent, 1989. - 24 б.; Mirzayev T. Халк бaxshilarining эпик репертуари. - Toshkent: Фан, 1979. - Б. 62.

⁸ Mirzayev T. Халк бaxshilarining эпик репертуари. - Toshkent: Фан, 1979. - Б. 8.

⁹ Zarifov X. Фолклор эпоси - китоблар дostoni // Шарк юлдузи, 1974. - Б. 8-9.

Ikkinchidan, har bir dostonchilik maktabida baxshilar doston boshlanmasini kuylashda o'ziga xoslikka ega bo'lgan. Chiroqchi dostonchilik maktabi vakillari doston boshlanmasida "Munojot" qo'shadilar. Qamay dostonchilik maktabida baxshilari doston boshlanmasini voqealarning juda qadim zamonlarda bo'lib o'tgani bilan boshlash an'anasi mavjud.

Uchinchidan, har bir dostonchilik maktabi vakillarida doston kuylash jarayonida ma'lum bir o'rinda ijro etiladigan qaytarilgan mavjud. Chiroqchi dostonchilik maktabi vakillari ijrosida "Olloyo, Robbim hay, Yorimov" tarzida, Kofrun dostonchilik maktabi doston kuylovchilari ijro jarayonida "hay haye" shaklida kuylaydilar.

To'rtinchidan, har bir maktab o'ziga xos kuylash uslubi va musiqaga e'tibor berilishi bilan farqlanadi. Odatda, Chiroqchi dostonchilik maktabi vakillari doston kuylash jarayonida sho'x va o'ynoqi musiqa tanlaydilar.

V.M.Jirmunskiy, H.T.Zarifov Shahrizabz dostonchilik maktabi deb ta'kidlagan maktab aslida Chiroqchi dostonchilik maktabi sanaladi. Mazkur dostonchilik maktabi Abdulla shoir Nurali o'g'li (1874-1957) bilan boshlanadi deyiladi manbalarda. Biroq bu maktab Abdulla shoiridan oldin ham mavjud bo'lgan, chunki Abdulla shoirning ustozlari Rajab shoir (1846-1897) chiroqchilik bo'lib, Chiroqchi dostonchilik maktabining vakili sanalgan. Abdulla shoir ustozshogirdlik an'anasini davom ettirmagan.

Chiroqchi dostonchilik maktabi Janubiy O'zbekiston dostonchiligining bir bo'lagi bo'lib, bu dostonchilik maktabda ko'plab iqtidorli baxshilar yetishib chiqqan va bugungi kunda ham mazkur maktab vakillari qadimiy dostonchilik an'anasini saqlab qolishda o'z hissasini qo'shib kelmoqdalar.

Birinchi bobning ikkinchi fasli "**Shomurod baxshi ijodiy merosida an'ana va novatorlik**" deb nomlanib, unda ijodkor repertuaridagi xarakterli xususiyatlarga e'tibor qaratilgan.

An'anaviylik xalq ijodining doimiy ravishda bir xil shakl va sharoitda og'izdan og'izga, avlodlardan avlodlarga o'tish jarayoni hamda barqaror saqlanib qolishidir. Bu haqda akademik T.Mirzayev shunday deydi: "Traditsiya va improvizatsiyaning, an'anaviy uslub va baxshilar ijodiy badihasining dialektik birligi va o'zaro aloqasi folklorning asosiy xususiyatlaridan bo'lib, og'zaki poeziyaning g'oyaviy-estetik mohiyatini belgilaydi". Darhaqiqat, an'anaviylik asosida nafaqat og'zaki ijod, balki ustozshogirdlik, ijro usuli, e'tiqod va madaniyat yashab qoladi.

Shomurod shoir ota-bobolarining an'anasini davom ettirgan yetuk baxshi. Uning yetti ajdodi baxshi o'tgan. Baxshining eng katta bobosi Qulliboy baxshi bo'lgan. Bu suloladan Qulman, Begmat, Rasul, Mahmon, Mardon va Tog'ay shoir kabi yetuk baxshilar yetishib chiqqan. Shomurod baxshi Tog'ay shoirning o'g'li sanaladi.¹⁰

⁹ Мирзаяев Т. Халқ бaxшларининг эпитк репертуари. — Б. 77.

¹⁰ Shejarami tuzishda Shomurod shoirning xonadonida bo'lib, o'g'illari, qizi, shoirning turmush o'rtog'i Almasheva Roza monolar bilan suhbat o'tkazib, ma'lumotlar oldik. Bulardan tashqari Shomurod shoir xonadonida saqlanib qolgan qo'lyozma manbalardan, Chiroqchi tumanidagi madaniyat uyidan, shoir bilan suhbatda bo'lgan (N.Kengoboyev, S.Chubayev) kishilardan, adabiyotlardan imkon qadar foydalandik. (K.E.)

Shomurod shoir otasi Tog'ay shoiridan baxshichilik san'atini o'rgangan bo'lsa, Chiroqchi dostonchilik maktabi vakillari Azim shoir, Narzulla baxshi, O'sar baxshi, Qodir baxshilardan dostonchilik sirlarini mukammal o'rganadi.

Shomurod baxshi boshidan kechirgan va otasi chekkan qatag'on yillarining zahmatlarini, o'sha yillarda amaldorlarning adolatsizligi kuyga solingan "Mekkam chol" termasini jamoatchilik orasida ta'sirli kuylash orqali xalq e'tiboriga tushdi.

Shomurod baxshi Janubiy O'zbekiston baxshichilik an'anasiga ko'ra bo'g'iz ovozda, faqat birgina cholg'u asbobi (do'mbira) yordamida, yakka holda kuylaydi. Shomurod baxshi o'z uslubiga ko'ra, doston kuylashni "Mekkam chol", "Guldana", "Qashqadaryom" kabi termalari ijrosi bilan boshlaydi.

Shomurod shoirini tom ma'noda baynalmilal baxshi deyish mumkin. U o'zbek, qozoq, turkman, rus, ukrain, moldavan, belorus va boshqa millat tillarida bemalol, hatto soatlab termalar aytib bera olgan.

Baxshining keyingi yaratgan "Tinchlik", "Cho'iquvar", "Qarshi qo'shig'i", "Sut sog'uvchi To'linoy", "Aytaymi", "Qashqadaryom" kabi termalarida hayot zavqi, tinchlik va farovon hayot kuylanadi.

Qashqadaryo — daryolarning sarasi,

Uni ko'rganlarning kelar havasi.

Kundan kunga yurtim obod bo'lasi,

Chor taraftan mehmon kelib qo'nasi.

Mazkur termada el ko'rgan baxshining o'z yurtidan iftixori o'z aksini topgan.

Shomurod baxshi ustozlardan o'rgangan dostonlarni mahorat bilan kuylash barobarida o'zi ham yangi dostonlar yaratgan.

"Alpomish", "Nurali", "Ovsar dev" bilan "Gupsar dev" an'anadagi dostonlarning Shomurod baxshi repertuaridagi variantlaridir. Mazkur dostonlar ijrosida baxshi badihago'yiligi va badiiy mahoratini ko'rish mumkin. Xususan, "Go'ro'g'li" turkumi dostonlari sirasiga kiruvchi "Nurali" dostonining Shomurod baxshi repertuaridagi varianti ijrosi baxshi individual mahoratini yaqqol kuzatish mumkin.

Baxshi dostonlarining o'ziga xosligi boshlanmadagi saji bilan ajralib turadi: "Shunda ko'ring Go'ro'g'li xon, Go'ro'g'li sulton, bo'lgan olamga doston. Dushmanni ko'rsa qilar yer bilan yakson. Ko'ziga ko'rinmas oy bilan osmon. Quvvat beradi Abu Bakir Siddiq, Umari, Usmon" nasrdagi ohang "xon", "sulton", "doston", "yakson", "osmon", "Usmon" so'zlari orqali hosil qilingan. Dostonlarda saji o'ziga xos ritmi yuzaga keltiradi.

Dostonlarda eng ko'p uchraydigan an'analardan biri qahramonlarning tush ko'rish motividir. Dostonlarda tush motivining kelishi mifologik tasavvurlarga, kult miflariga borib taqaladi¹¹. An'anaviy dostonlarda qahramonlar bir-birini tushlarida ko'rib oshiq bo'lib qoladi va izlab yo'lga chiqadi. Tush voqealar rivoji uchun asosiy poydevor vazifasini o'taydi. Shomurod shoir kuylagan dostonlarda ham epik qahramonlar bir-birlarini tushida ko'rib, oshiq bo'lib qoladi va keyingi voqealarni unga bog'laydi. "Nurali" dostonida Nurali Xiromon parini "Ovsar dev bilan Gupsar dev" dostonida Avazxon Masqar parini tushida ko'rib oshiq bo'ladi.

¹¹ Jo'rayeva M., O'rayeva D. O'zbek mifologiyasi. — Toshkent: Excellent Polygraphy, 2020. — B. 31.

Dostonlarda keladigan an'anaviy hodisalardan yana biri safar motividir. Safar motivi epik qahramonning ruhiy kamolotga, ya'ni alpik maqomiga erishishining bir bosqichidir. "Ovsar dev bilan Gupsar dev" dostonida voqealar qahramonlarning, Avazxon Masqa parini izlab Kuhiqofga, "Nurali" dostonida Nurali Xiromon parini izlab Kuyitir mamlakatiga qilgan safari bilan boshlanadi. Dostonlardagi asosiy voqealar Kuhiqof va Kuyitir mamlakatlari kechadi. Bu qahramonga alpik, komilik darajasiga erishishi uchun epik makon hisoblanadi.

Shomurod shoir baxshichilik borasida ustoz-shogirdlik an'anasini davom ettirgan holda, ko'plab shogirdlar tayyorlagan. Shomurod shoirning shogirdlari hisoblanmish Sanjar shoir, Jaloliddin baxshi, Og'abek baxshi, Mardon baxshi kabi shogirdlari ustozining an'ana uslublarini davom ettirib, doston va termalar kuylab kelmoqda.

Dissertatsiyaning ikkinchi bobi "Shomurod baxshi repertuaridagi dostonlar tadqiqi" tarzida nomlangan bo'lib, uning birinchi faslida "Ovsar dev bilan Gupsar dev" dostonining genezisi va epik an'ana" masalasi tadqiq etilgan.

Shomurod baxshi ijodida alohida o'rin tutuvchi "Ovsar dev bilan Gupsar dev" dostonida ko'plab an'anaviy obrazlar ishtiroki ta'minlanib, qator yetakchi motivlardan foydalanilgan. Asar "Go'ro'g'li" turkumiga oid doston sifatida taqdim etilgani bois unda Go'ro'g'li, G'irko'k, Avaz, Soqibulbul, Ahmad sardor kabi obrazlarni ko'rish mumkin. Zero, epik qahramon hisoblangan Go'ro'g'li, jangovar ot timsoli bo'lgan G'irko'k, epik makon Chambil - turkum dostonlarini mohiyatan birlashtiruvchi vositalarni tashkil etadi. Dostonida, shuningdek, qirq yigit, chiltonlar singari an'anaviy personajlar hamda ularning g'ayriqutblari tasviri ham keltiriladi.

Avvalo, asar nomlanishida dev obraziga murojaat qilinganiga e'tibor qaratish joiz. Dev obrazi ajdodlarimizning tasavvur va ong bosqichlariga bog'liq bo'lib, ular o'zgargan sayin devning qiyofalari ham o'zgarib borgan. Ijtimoiy ong taraqqiy etgan sari devning arxaik, yirtqichlik qiyofalari kuchsizlana boshlagan. Devning arxaik qiyofasi tarixiy asoslarini tabiat jonzoftlari orasidan emas, balki ajdodlarimizning mifologiy qarashlari, tabiatga munosabatidan izlamoq kerak.¹²

Binobarin, dev timsolida qadimgi ajdodlarimizning ilk poetik tasavvurlari o'z aksini topgani bois ushbu obrazda umuminsoniy ulkan bilimlar jamlangan deyishga asosimiz yetarli. Zero, dunyo xalqlari folklorida umumiy nom bilan ataladigan, mohiyatan bir-birini to'ldiradigan obrazlar genezisiidagi musharaklik shunday xulosalar chiqarishimizga zamin yaratadi.

"Ovsar dev bilan Gupsar dev" dostonida dev tuva qiyofasida tasvirlanadi. Xalq og'zaki ijodida devni hayvonlar, tabiat stixiyalari orqali ifodalash ko'p uchraydi, bular oddiy o'xshatish yoki ko'chimlar bo'lmay, zamirida xalqning an'anaviy tasavvur va dunyoqarashi yotadi.¹³

Doston syujetida g'oyibona oshiqlik motivini ham uchratish mumkin. Ya'ni Avaz Masqa parini tushida ko'rib, sevib qolgani ma'lum qilinadi. Psixologlarning fikriga ko'ra, insonning asl tiynati, fe'l-atvoridagi fazilat-u nuqsonlar aynan uning

tushida bor holicha namoyon bo'ladi. Boshqacha aytganda, odam tushidagina asl qiyofasini ko'rsatadi, turli niqoblar, soxta takalluf-u, shirin yolg'onlar tushga begona.

Binobarin, dostonda tushdagi uchrashuvga alohida e'tibor qaratilgani bejiz emas. Zero, qahramonlarning toza tuyg'ularini, sof muhabbatini badiiyatda aks ettirishning boshqa usuli yo'q. Shunday ekan, dostonning markaziy qahramoni Avaz, aslida Haq vasliga intilayotgan oshiq, tariqat yo'liga qadam qo'ygan solikning badiiy asardagi timsolidir.

Dostonning keyingi o'rinlarida dastlab Go'ro'g'lining farzandiga qayliq qidirib yo'lga chiqishi, so'ngra Avazning otasini izlab, uning ortidan ketishi tasvirlanadi. Ma'lumki, safar motivi ham xalq og'zaki ijodiyotining nasriy asarlarida keng tarqalgan epizodlardan. Syujetni boyituvchi eng qiziqarli voqea va hodisalar aynan safar uyushtirilgan makon va zamonda sodir bo'ladi.

Biz tahlilga tortgan dostondagi devlar safarga chiqqan qahramonlarni chalg'itish maqsadida boshqa jonzotga evrilgani, bu bilan ular o'limga chap berishga uringanini ko'rish mumkin.

Dostondagi yana bir epik voqea e'tiborni qaratsak, Avazxon Ahmad sardor va Soqibulbul bilan yo'lga tushadi. Ularning yo'lidan bir daryo chiqadi. Xalq og'zaki ijodida daryoning to'siq bo'lib kelish an'anasi poetik mazmuni boyitadi. Suv ularni olib ketdi. Avazxonning oldidan ro'dapo kampir chiqadi. O'zini buvisi deb tanishtirib, aldad, Avazxonni tuzoqqa tushirdi. Uni Soqibulbul Ismi A'zam kitobidan duo o'qib, turligiyoni hidlatib, qutqarib qoladi. Bunday badiiy to'qimaning ko'chib yurishi epik asarlarda ko'p uchraydi. Kampirlarning hiylasi tufayli qahramonlarning tuzoqqa tushish motivi qishning yoz bilan kurashishdek poetik ifoda beradi.

Ta'kidlash joizki, qahramonlar suhbatidan maston kampirning tanasi nimta-nimta bo'lib ketgan bo'lsa-da, kallasi sog' qolgani anglashiladi. Bundan esa, Soqibulbul qattiq afsuslanadi. Uning aytishicha, kallasini uzib olib majaqlamasdan, jodugarni o'ldirib bo'lmaydi.

Etnograf olim V.N.Basilovning yozishicha, "o'zining kesilgan boshini qo'lida ko'tarib yurgan qahramon yoki chopilgan boshning dumalab ketishi motivining tarixiy asoslari ajdodlar kulti hamda o'lib-tiriluvchi ilohlar to'g'risidagi qadimgi tasavvurlar bilan bog'liqdir".¹⁴

Ajdodlarimiz odam yoki biror jonivor o'lgach, uning ruhi tanasining muayyan qismlarida saqlanib qoladi deb o'ylaganlar. Ana shu qadimiy tasavvurlar asosida yaratilgan animatik miflarning arxaik shakllari "Avesto"da ham o'z ifodasini topgan.⁵

Dostonning an'anaviy yakuni ham ma'lum ma'noda o'zgartirilmagandek ko'rinadi. Qahramonlar sinovlarda toblanib, murod-maqsadiga erishadi. Doston yakuni ham boshlanmasi kabi qisqalikka asoslangan. Doston boshida ilgari surilgan mazmun asosan Go'ro'g'li Avazxonni uyli qilib, o'rnini topshirib, qarilik

¹² Эшонкулов Ж. Ўзбек халқ оғзаки ижодида дев образининг мифология асослари ва бадий тилкори. Филол. фан. ном. дисс. – Тошкент, 1996. – Б. 96.

¹³ Эшонкулов Ж. Фольклор: образ ва ташкил. – Қарши: Насарф, 1999. – Б. 68.

¹⁴ Басилов В.Н. Следы культуры умирающего и воскресающего божества в христианской и мусульманской агнологии. // Фольклор и историческая этнография. – М.: Наука, 1983. – С. 145.

“Sho‘l kecha shu yerda yotdi. Ertamertan tong otdi. O‘rindan turib Nuralixon bobosiga qarab, bir-ikki og‘iz so‘z aytib turibdi:

So‘zima quloq sol, Jonim, bobojon! 11

Qizlarning sarasi pari Marg‘umon, 11

Shunday dilbar edi mening tushima”²³

Xuddi shu voqea Shomurod baxshida quyidagicha beriladi:

“Go‘ro‘g‘lining uli Avazxon, Avazxonning uli Nurali o‘n to‘rt yoshga kirgan, qayg‘ular boshiga qo‘ngan, oyni o‘n beshi to‘lgan. Shunda kelib, bobosiga qarab:

Jon bobojon, niyatimdi bajargin, =10

Ko‘nglimdiya, bobojona, xushlagin. =10

Oyding o‘n beshiya bugun to‘lipti, =10

Bobojon, senana nevarang G‘iroftiyya tilaba, =15

Tushidaya bir parini ko‘ripti” =11²⁴

Ko‘rimadiki, Shomurod baxshi kuylagan dostonida ifoda bir qancha odmi va ibtidoiy. Bu haqda akademik T.Mirzayev deydi: “Sherobod dostonchilik maktabi baxshilari repertuariga nazar tashlar ekanmiz, dostonchilikning nisbatan quyi bosqichlari unsurlariga, badiiy tafakkurning uncha rivojlanmagan formalariga duch kelamiz”²⁵ Darhaqiqat, doston tili anchagina qadimiy va ifodalar ham teran emas. Hatto she‘riy misradagi hijolar miqdori ham bir xil emas. Shunga qaramay, dostonidagi ifoda qiziqarli va hayotiydir. Doston syujeti an’anaviy “Nurali” dostoni variantlaridan farq qiladi. Odatda Go‘ro‘g‘li ham, o‘g‘illari ham, nevaralari ham qaysi mamlakatdan yor tanlashidan qat‘i nazar yorlarini olib, o‘sha mamlakatni mahv etib Chambilbelga qaytib to‘y-tomoshalar bilan murod-maqsadiga yetishadi. Biroq Shomurod baxshi variantida bu an‘ana buzilgan. Sababi, keyingi voqealar dostonning mantiqiy davomi sifatida Avazxonning ikkinchi o‘g‘li Sheralining sarguzashtlari aks etgan “Sheralining otasini izlab Hindistonga borishi” dostoniga bog‘lanadi.

Doston voqealarining rivojlanishi va qiziqarli bo‘lishining asosi obrazlar tizimiga ham bog‘liq. Shomurod baxshining “Nurali” dostoni variantidagi obrazlar tizimi alohida xarakterga ega.

“Nurali” dostonining Fozil Yo‘ldosh o‘g‘li variantida ham, bizga ma‘lum boshqa variantlarda ham “Go‘ro‘g‘li” turkumi dostonlarida raqib bo‘lib keluvchi Ahmad sardor obrazi uchramaydi. Shomurod baxshi repertuaridagi “Nurali” dostonida Ahmad sardor obrazi yetakchi obrazlardan biri sanaladi.

“Go‘ro‘g‘li” turkumi dostonlarining yana bir o‘ziga xosligi ularda dev va pari obrazlarining mavjudligidir. “Nurali” dostonining Fozil Yo‘ldosh o‘g‘li variantida ham dev obrazi mavjud. Dostonidagi Qayqam dev Nuraliga xayrixoh bo‘lib, uni Mahmudxon lashkaridan asrab qoladi. Biroq Shomurod baxshi dostonida Oq dev, Qizil dev va Qora dev obrazlari Nuraliga dushman sifatida ifoda etiladi. Nurali bobosi va otasi kabi devlar bilan olishib mag‘lub etish fonida qahramonga aylanishi nazarda tutilgan.

²³ Нурали. Айтувчи: Фозил Йўлдош ўғли. – Тошкент: Адабиёт ва санъат: 1989. – Б. 119.

²⁴ Nurali. Aytuvchi: Shomurod baxshi. Matn, 43-bet.

²⁵ Mirzayev T. Xalq baxshilarining epik repertuari. – Toshkent: Fan, 1979. – B. 62.

gashini surmoqchi edi. So‘nggida berilgan qisqa parcha orqali ham Go‘ro‘g‘li, ham Avazxon murod-maqsadiga yetganini ko‘rish mumkin.

Ikkinchi bobning “Nurali” dostonining Shomurod baxshi varianti” nomli ikkinchi fasli ijodkor kuylagan mazkur dostonidagi xarakterli xususiyatlarining tadqiqiga bag‘ishlangan.

“Go‘ro‘g‘li” turkumi dostonlari sirasiga kiruvchi “Nurali” dostoni o‘zining qiziqarli syujeti, badiiyati va rang-barang voqealarga boyligi bilan ajralib turadi. Shu sabab mazkur doston ko‘pchilik ustoz baxshilar repertuaridan joy olgan. M.Mirzayeva “Go‘ro‘g‘li” nasliy turkum dostonlarni ikki qismga, Go‘ro‘g‘lining ikki asrab olgan o‘g‘illari “Hasanxon” va “Avazxon” nomli dostonlar, ularning farzandlari bilan davom etadigan ikki tarmoqqa ajratadi. “Nurali” dostoni “Avazxon” dostonining nasliy turkumligini davom etadi¹⁶. Darhaqiqat, Go‘ro‘g‘libekning Avazxon o‘g‘li naslini Nurali davom ettirib, “Avazxon” dostonlar tarmog‘idagi eng sara dostonlarning biri sanaladi.

Bu doston, asosan, Qashqadaryo va Surxondaryo baxshilari orasida keng ommalashganligi haqida mutaxassislar ma‘lumot berishadi¹⁷. Xususan, “Nurali” dostonining eng qadim namunalari hamda ibtidoiy shakllari bevosita Qashqadaryo dostonchilik maktablariga xosligi folklorshunos A.Qahhorov tomonidan ta’kidlanadi¹⁸. Shu sabab mazkur doston ijrochiligi Qashqadaryo va Surxondaryo dostonchilik maktablarining vakillari repertuarida alohidalikni tashkil etadi.

“Nurali” dostoni va uning variantlari XX asr boshlarida Fozil Yo‘ldosh o‘g‘li, Tog‘ay shoir, Umir Safarov, Ro‘ziyev Qo‘zi kabi baxshilardan yozib olingan. Mazkur doston variantlarining qo‘lyozma nusxasi O‘zR FA O‘zbek tili, adabiyoti va folklori institutining Folklor arxivida saqlanadi. Dostonning Fozil Yo‘ldosh o‘g‘li varianti nashr etilgan¹⁹.

“Nurali” dostonining yana bir varianti Shomurod baxshi repertuaridan Nuriddin Aminjonov tomonidan audio nusxasi yozib olingan²⁰.

Shomurod baxshi mazkur dostonni otasi Tog‘ay shoiridan o‘rgangan²¹. “Nurali” dostoni varianti an’anaviy “Go‘ro‘g‘li” turkumi dostonlari singari Go‘ro‘g‘lining tavsifi va tasviri bilan boshlanadi: “Oov, omon omonda, Taka tomonda, Chambilning elida, Turkmanning belida Go‘ro‘g‘li o‘tdi. Dong‘i Dog‘iston ketdi, ovozasi olamni tutdi”²². Go‘ro‘g‘li tasnifi doston boshida alohida ta’kid va tasvir orqali beriladi. Mazkur dostonning boshlanmasi sa’j’ga boyligi bilan ajralib turadi.

“Nurali” dostoni variantlarida syujet chizig‘i asosini Nuralining tushida go‘zal yorni ko‘rishi, unga oshiq bo‘lib safarga chiqishi sarguzashtlari tashkil etadi. Har bir baxshining ijro va ifoda uslubi turlicha bo‘ladi:

¹⁶ Mirzayeva M. Xalq dostonlarida turkumlik masalasi. / O‘zbek xalq ijodlari. – Toshkent, 1967. – B. 59-65.

¹⁷ O‘zbek folklori. Mirzayev T. va boshqalar. – Toshkent: Tafakkur bo‘stoni, 2020. – B. 124.

¹⁸ Каххаров А. Специфические особенности цикла дастанов «Келинкой». Автореф. канд. дисс. – Ташкент, 1971.

¹⁹ Нурали. Айтувчи: Фозил Йўлдош ўғли. – Тошкент: Адабиёт ва санъат: 1989. – Б. 119.

²⁰ Nurali. Aytuvchi: Shomurod baxshi. Yozib olinuvi: Aminjonov N. Matnga ko‘chiruvchi: Egamqulov K.

²¹ ЗУФД. Инъ. – №14800. Нурали. Айтувчи: Торай поир Махмон ўғли.

²² Nurali. Aytuvchi: Shomurod baxshi. Matn, 42-bet.

Shomurod baxshining "Nurali" dostonida lo'lib obrazli mavjud bo'lib, "Go'ro'g'li" turkum dostonlarida lo'lib obrazli uchramaydi.

Shomurod baxshining "Nurali" dostonida lo'lib obrazining kiritilishi va asosiy obraz sifatida olinishi baxshi yashagan hududda lo'lib obrazining istiqomat qilishi va o'sha yer aholisiga lo'lib obraz turmush tarzining ta'siri borligini ko'rsatadi.

Shomurod baxshining "Nurali" dostoni badiiy qurilmasi ham boshqa variantlardan farq qiladi. Xususan, Shomurod baxshining badiiy mahoratini doston tarkibidagi epik formulalar va baxshi badiyasi orqali aniqlanadi.

Xulosa o'rinda aytish mumkin, Shomurod baxshining "Nurali" dostonining varianti o'zining original syujetiga egaligi, obrazlar tizimi, voqealar rivoji bilan boshqa variantlardan ajralib turadi. Xususan, badiiy jihatdan mukammal deb qaralgan Fozil Yo'ldosh o'g'li variantidan ancha farq qiladi.

Dissertatsiyaning "Shomurod baxshining badiiy mahorati" deb ataluvchi uchinchi bobining ilk fasli "Shomurod baxshi dostonlarida qofiya va badiiy takror" tarzida nomlangan.

Doston kuylashda xos baxshilar eng avvalo an'anaviy epik formulalarga tayanadi. Doston ijrochiligida epik formulaning o'rni nihoyatda katta. Bu haqida folklorshunos olim Jabbor Eshonqulov shunday deydi: "Epik formula bu eposning yadrosidir. U ijodning og'zakligini, an'anaviyligini ta'minlaydi. Epik formula bu eposning qurilmasi, suvaygidir. Baxshining epik an'anaga amal qilib, o'z formulasi yaratishi bu baxshining iqtidoriga va mahoratiga bog'liq".²⁶ Darhaqiqat, doston ijrosi jarayonida epik klishe'lar baxshi epik iqtidorini ko'rsatish, voqealar rivoji jarayonida baxshi badihago'yiligi uchun zamin hozirlovchi yoki voqealarni o'zaro bog'lanishida, baxshi epik bilimni tiklovchi vosita vazifasini bajaradi. Ba'zan baxshilar an'anaviy qaytariqlardan foydalanish bilan baxshi epik uchun yangi epik formulalar kashf etadilar. Shomurod baxshi ham xuddi shunday novator baxshilardan sanaladi.

"O'yg'imni qo'yamana, zinama-ya bul zina" // "Oxshom jotib erta-sahar turgayman, Kecha ko'rgan tushimni erta bilan jo'rayman" // "Osmonniya usti to'la farishta, farishtalar yer yuziga kelayimish har ishda" // "Xon hazratga Ali kuyov emasma, Jon bermoqqa jig'it polvon emasma" // "Manov dunyo olma ekan nor akan, Zimistonda cho'kib yotgan qor akan" // "Jannatga borganni piylilari kengmikan, Do'zaqqa borganni piylilari tormikan" // "Otingdan aynalay oy bilan osmon, Abu Bakir, Ali, Umbari, Usmon" kabi qaytariqlar faqat Shomurod baxshi dostonlaridagi epik formulalar sanaladi.

Professor Jabbor Eshonqulov epik formulalarning yuzaga kelish jarayoni bevosita til qonuniyati bilan bog'liqligini aytadi.²⁷ Shundan kelib chiqib epik formulalarni uch guruhga: ma'lum bir xalq baxshilariga xos bo'lgan epik formula; biron-bir maktab yoxud uning bir necha vakillariga xos bo'lgan epik formula; individual epik formulalarga ajratadi. Shomurod shoir kuylagan dostonlardagi epik formulalar ikkinchi guruh, ya'ni biron-bir maktab yoxud uning bir necha vakillariga xos bo'lgan epik formulalar hisoblanadi. Dostonda keltirilgan

an'anaviy qaytariqlar Chiroqchi dostonchilik maktabi vakillariga, Shomurod shoir va otasi Tog'ay shoirigina xosdir. Janubiy O'zbekiston dostonchiligi bilan bog'liq Qamay, Shahrisabz, Sherobod dostonchilik maktablarida uchramaydi.

